

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

KURALBAYEV AZIZBEK KURALBAYEVICH

**BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA YOSH
GANDBOLCHILARNING O‘QUV-MASHG‘ULOT JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq–2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kuralbayev Azizbek Kuralbayevich

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o‘quv-
mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish uslubiyati..... 3

Куралбаев Азизбек Куралбаевич

Методика совершенствования учебно-тренировочного процесса юных
гандболистов на начальном этапе подготовки 29

Kuralbayev Azizbek Kuralbayevich

Methods of improving the training process of young handball players in the
initial stage of preparation..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

KURALBAYEV AZIZBEK KURALBAYEVICH

**BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA YOSH
GANDBOLCHILARNING O‘QUV-MASHG‘ULOT JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq–2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/Ped2324 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yerimbetov Bayrambay Karlibayevich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar: **Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich**
biologiya fanlari doktori, professor

Nabiyev Timur Erikovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03.30.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashining 2023 yil “_____” _____kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks: (0-370) 717-17-76; veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “B” binosi, 2-qavat, kichik anjumanlar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 uy.) Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; faks.: (0-370) 717-17-76

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____da tarqatildi.
(2023 yil “___” _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

M.R.Boltabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

I.I.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda gandbol sport turining hozirgi holati, geografiy jihatdan kengayishi va o‘yin qoidalarining takomillashib borishi bilan jamoaviy raqobatning keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Ya’ni, g‘alabaga erishish uchun gandbolchilarni tayyorlashning yanada mukammal vositalari va usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yosh sportchilarni uzoq muddatli tayyorlashning uslubiy asoslarini yaratish asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa yosh gandbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini zamonaviy uslub va dasturlar asosida takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Jahonda gandbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonini samarali tashkil qilish bo‘yicha yosh gandbolchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish, gandbolchilarni individual va jamoaviy mashg‘ulot rejalarini takomillashtirish, yosh gandbolchilarning somatotip xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish, gandbol mashg‘ulotlarida trenajyorlaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Biroq, yosh gandbolchilarning individual va jamoaviy imkoniyatlarini oshiruvchi uslubiyatni ishlab chiqish va uni takomillashtirib borish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Respublikamizda barcha sport turlarining rivoji uchun keng imkoniyat va sharoitlarni yaratish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom va aqlan yetuk qilib tarbiyalash borasida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. “Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning innovasion usullarini takomillashtirish va qo‘llash orqali bolalar va o‘smirlarni jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish hamda ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibini sifatli to‘ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish”¹ zaruriyati belgilab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, gandbol sport turida sportchilarni saralash texnologiyasi, gandbolchilarni texnik-taktik tayyorgarligini oshirish bilan bog‘liq tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, ushbu tadqiqot ishlarida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidan boshlab yosh gandbolchilarni tayyorlash uslubiyatini xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda tashkil qilishga e’tibor berilmagan. Bu esa boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tashkil qilish uslubiyatini takomillashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сонли Фармони. Lex.uz

yil 29 yanvardagi 65-sonli “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlatirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijda yosh gandbolchilarni tayyorlash, ularning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Vatanimiz olimlardan J.A.Akromov, F.A.Abduraxmonov, Sh.K.Pavlov, T.E.Nabiyev, Z.Z.Yusupov va Sh.F.Tulaganovlar² gandbol sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning texnik-taktik ko‘rsatkichlarini yaxshilashda musobaqa sharoitidan kelib chiqib, gandbolchilarning taktik tayyorgarligini takomillashtirish uchun mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish, yosh gandbolchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida saralash texnologiyasini ishlab chiqish, sport takomillashuv bosqichidagi malakali gandbolchilarni tayyorlashda esa o‘yin amplusini inobatga olish zarurligini ta’kidlashgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan Yu.D.Jeleznyak³ sport o‘yinlari bo‘yicha yosh sportchilar zaxiralarini tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan. V.K.Balsevich⁴ sportchilarning mashg‘ulotlardagi harakatlarini boshqarishda muvaffaqiyatga erishishning eng muhim sharti, sport mashg‘ulotlarning uzoq muddatli individual strategik va taktik rejalarini izchil amalga oshirishga qat‘iy e‘tibor berish lozim deb xisoblagan. A.M.Ivashchenko⁵ shug‘ullanuvchilarning tana uzunligi bo‘yicha tasnifiga asoslanib va o‘shish ma‘lumotlariga qarab, yosh gandbolchilarning tayyorgarligida aniq chegaralariga amal qilish lozim deb hisoblagan. M.S.Brill, V.G.Nikitushkinlar⁶ jamoaviy sport

² Акромов Ж.А. Обоснование методики контроля и анализа критериев техники бросков мяча в ворота в гандболе: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. – М., 1992. - 23 с., Абдурахманов Ф.А. и Павлов Ш.К. Подготовка гандболистов. – Ташкент. УзГИФК, 1992. - 230 с., Набиев Т.Э. Планирование тренировочных нагрузок по совершенствованию тактической подготовки гандболистов в соревновательном периоде: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. -Т., 2005. - 25 с., Юсупов З.З. Бошланғич тайёргарлик босқичига ёш гандболчиларни саралаш технологияси. Педагогика. фан. (PhD)...дисс.автореф.-Чирчик:ЎзДЖТСУ, 2021. - 66 б., Тулаганов Ш.Ф. Спорт такомиллашув босқичида малакали гандболчиларнинг ўйин амплуасини инobatга олган ҳолда мажмуавий тайёрлаш тизими. Педагогика. фан. (PhD)...дисс.автореф. - Чирчик: ЎзДЖТСУ, 2022. - 60 б.

³ Железник Ю.Д. Совершенствование системы подготовки спортивных резервов в игровых видах спорта: Автореф. дис. ... доктора пед. наук. - М., 1981. - 48 с.

⁴ Бальсевич В.К. Перспектива развития общей теории и технологии спортивной подготовки и физического воспитания / В.К. Бальсевич // Теория и практика физической культуры. - 1999. - № 4. - С. 21-25.

⁵ Иващенко А.М. Направленность физической подготовки высокорослых гандболистов в учебно-тренировочных группах ДЮСШ: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Иващенко Антонина Михайловна; Гос. центр. Ордена Ленина ин-т физ. культуры. - М., 1991. - 20 с.

⁶ Бриль М.С. Принципы и методические основы активного отбора школьников для спортивного совершенствования: Дис. ... докт. пед. наук: -М., 1986. - 405 с., Никитушкин В.Г. Некоторые итоги

turlarida sport tanlovining tamoyillari va uslubiy asoslarini ishlab chiqdilar. Sport o'yinlarida makrosikllarni loyihalashning umumiy muammolarini M.V.Saxarova, G.V.Barchukovalar⁷ tadqiq qilishgan. Xususan, yosh gandbolchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari V.Ya. Ignatieva⁸ tomonidan asoslab berilgan. I.G.Shestakov⁹ BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh gandbolchilarning to'pni otishni takomillashtirish jarayonini ko'rsatib o'tgan.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh sportchilarning morfologik va harakat parametrlari asosida gandbol sport turi bilan shug'ullanish jarayonlari bo'yicha C.Garsia¹⁰ tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tahlillarga ko'ra, BO'SM gandbol sport turi bilan shug'ullanuvchi 7-12 yoshli bolalar uchun o'quv-mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish, ularning jismoniy va funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirib borish, buning uchun mashg'ulotlarni rejalashtirish jarayonlariga tuzatishlar kiritish shu jumladan gandbol sport turi bilan shug'ullanuvchi 7-12 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi maxsus uslub va dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash masalalari deyarli tadqiq etilmagan. Mana shu jihatlar tadqiqotimizning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining № V/I.19. "O'zbekistonda gandbol, tennis, badminton, regbi sport turining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusi doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirish uslubiyati yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

7-12 yoshli gandbolchilarning mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini rivojlantirish imkoniyatini oshiruvchi mashg'ulot modulini ishlab chiqish;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh gandbolchilarning gandbol qoidalarini, texnik va taktik mashqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;

7-12 yoshli gandbolchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida himoya va

исследования проблемы индивидуализации подготовки юных спортсменов / В.Г. Никитушкин, П.В.Квашук // Теория и практика физ. культуры. - 1998. - №10. - С. 18.

⁷ Барчукова Г.В. Формирование технико-тактического мастерства в индивидуально-игровых видах спорта (на примере настольного тенниса): автореф. дис. ... д-ра пед. наук / Барчукова Галина Васильевна; Рос. гос. акад. физ. культуры. - М., 1995. - 45 с., Сахарова М.В. Специфика проектирования тренировки юных спортсменов на этапе предварительной подготовки в спортивных играх / М.В. Сахарова // Детский тренер. - 2005. - №1. - С.60-65.,

⁸ Игнатъева В.Я. Многолетняя подготовка гандболистов в детско-юношеских спортивных школах. / В.Я. Игнатъева, И.В.Петрачёва -М., Советский спорт. - 2004. - 216 с.

⁹ Шестаков И.Г. Оптимизация процесса совершенствования броска у гандболисток учебно-тренировочных групп СДЮШОР: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Шестаков Игорь Геннадьевич; Гос. центр. Ордена Ленина ин-т физ. культуры. - М., 1993. - 21 с.

¹⁰ Garsia C. Initial and Further Selection of Children Gifted for Handball on the Basis of Some Chosen Morphological and Motor Parameters // EHF Periodical for Coaches, Referees and Lecturers Handball, 1997. - P. 4-7.

hujumdagi texnik-taktik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

7-12 yoshli gandbolchilarning mashg'ulot jarayonini tashkil qilish uslubiyatini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 1 va 3-sonli bolalar va o'smirlar sport maktablarining gandbol guruhidagi 7-12 yoshli bolalarning o'quv-mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 7-12 yoshli bolalar-o'smirlar sport maktabi gandbolchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda qo'llanilgan uslub va modullar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuvlar, morfofunktsional tadqiqot usublari, pedagogik testlash, pedagogik tajriba hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

7-12 yoshli gandbolchilarning mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini individual hamda jamoaviy qo'llash imkoniyatini o'rgatishga qaratilgan uch bosqichli boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni olib borish uslubiyati "boshlang'ich", "o'rta", "yuqori" mashg'ulot modulini amaldagi dasturga nisbatan o'yin tajribasini jamoaviylikka yo'naltirish asosida kiritish hisobiga takomillashtirilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarni mashg'ulot vazifalarini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan individual, guruhli va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni o'rgatuvchi "mobil" (ochiq va yopiq joydan to'p uloqtirishni qo'llash, to'psiz o'yinchini bo'sh saqlash) hamda "o'yin" (bir doira ichida to'p poygasi, to'pni tez olish - tez qo'yish") mashqlarini mini-gandbol mashg'ulot jarayonlariga kiritish hisobiga o'quv-mashg'ulotlarini kreativ tashkil qilish imkoniyati oshirilgan;

7-12 yoshli gandbolchilarning o'yin maydoni yarmida raqib o'yinchisini to'sish, himoyachi o'yinchilarni oyoq harakati va tana holati bo'yicha, hujumkor o'yinchilarni qulay vaziyatlarga ega bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik, maydonda sirpanish va mudofaa qobiliyatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan "To'p va to'psiz bajariladigan mashqlar majmuasi"ni mashg'ulot jarayonining bir xil takrorlanishini oldini olish uchun variativ qo'llash hisobiga himoya va hujumdagi texnik-taktik ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati oshirilgan;

7-12 yoshli gandbolchilarning o'yin tayyorgarligini rivojlantirish uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini tanlangan sport turida belgilangan ma'lum vaqt ichida kichik vazifalarni amalga oshiruvchi "Kaskad" usulida mashg'ulot yuklamalar mezonlarini yillar kesimida saralash uslubiyati birinchi "o'yin tajribasini oshirishga", ikkinchi "texnik mahoratni mustahkamlashga", uchinchi "musobaqalashuv jarayoniga" taqsimlash hisobiga takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 7-12 yoshli bolalar-o'smirlar sport maktabi gandbolchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlarning mazmuni o'rganilib, bunda yosh gandbolchilarni "Mini-gandbol" mashg'ulot moduli asosida tayyorlash "Sport hám háreketli o'yinlardı oqıtıw metodikası (Gandbol)" darsligida o'z aksini topgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 7-12 yoshli bolalar-o'smirlar sport maktabi gandbolchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, jismoniy tayyorgarligi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib texnik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi yangi uch bosqichli modul "Sport hám háreketli o'yinlardı oqıtıw metodikası (Gandbol)" darsligida yoritilgan;

bolalar-o'smirlar sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish dolzarbligi gandbol sport turi bo'yicha murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi hamda joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba davomida olingan natijalar asosida ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga ega ekanligi, uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'liq mos kelishi, ilmiy-uslubiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga va ularning mualliflari bo'lgan respublikamizning hamda xorijiy olimlarning ilmiy xulosalari va tavsiyalariga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy tavsiyalar BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi gandbolchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonini rivojlantirishdagi muammolar yechimiga qaratilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyatining ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, bolalar-o'smirlar sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi gandbol sport turi bo'yicha o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyatini to'ldiradi hamda 7-12 yoshli gandbolchilar uchun "Mini-gandbol" mashg'uloti va u asosda ishlab chiqilgan uch bosqichli modul hamda kaskad usuli yordamida o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tajribalar asosida:

7-12 yoshli gandbolchilarning mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini individual hamda jamoaviy qo'llash imkoniyatini detallab o'rgatishga qaratilgan uch bosqichli mashg'ulot moduli "Sport hám háreketli o'yinlardı oqıtıw metodikası (Gandbol)" darsligining

mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022 yil 26 aprelda berilgan 06-13/1183-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning gandbol sport turi bo'yicha bilimlari 28 % ga, murabbiylarning o'quv-mashg'ulot jarayoniga yangi uslublarni joriy qilish bo'yicha ko'nikmalari 16 % ga oshgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarni mashg'ulot vazifalarini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan individual, guruhli va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni o'rgatuvchi "mobil" hamda "o'yin" mashqlari ishlab chiqilib Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 1-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022 yil 26 aprelda berilgan 06-13/1183-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yosh gandbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari 21 % ga, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari 19 % ga hamda murabbiylarning o'quv-mashg'ulot jarayonini rasional va ijodiy tashkil qilish bo'yicha ko'nikmalari 14 % ga ko'tarilgan;

7-12 yoshli gandbolchilarning o'yin maydonida raqib o'yinchisini to'sish, himoyachi o'yinchilarni oyoq harakati va tana holati bo'yicha, hujumkor o'yinchilarni qulay vaziyatlarga ega bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik kabi mudofaa qobiliyatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan "To'p va to'psiz bajariladigan mashqlar majmuasi"dan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 3-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022 yil 26 aprelda berilgan 06-13/1183-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yosh gandbolchilarda umumjismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 27 % ga, o'yin jarayonidagi texnik imkoniyatlari 17 % ga oshgan;

bolalar-o'smirlar sport maktabi 7-12 yoshli gandbolchilarning o'yin tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini tanlangan sport turi bo'yicha moslashtiruvchi "Kaskad" usuli "Sport ham hareketli oyinlardir oqituv metodikasi (Gandbol)" darsligining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022 yil 26 aprelda berilgan 06-13/1183-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yosh gandbolchilarning jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari 23 % ga o'sgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishi doirasida jami 14 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar va amaliy tavsiyalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 128 sahifa matn, 29 ta jadval, 10 ta rasm, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarni tayyorlashning ilmiy-nazariy jihatlarini”** deb nomlanadi. Mazkur bobda bolalar-o‘smirlar sport maktabida yosh gandbolchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy jihatlarini mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish asosida yoritib berilgan. Bir qator olimlar (A.M.Ivashchenko, Yu.D.Jeleznyak, M.S.Brill, M.V.Saxarova, V.Ya.Ignatieva,) sport o‘yinlari bo‘yicha bolalarning antropometrik ma‘lumotlariga qarab, yosh gandbolchilarning tayyorgarligida aniq chegaralarni topib, yosh gandbolchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini asoslab berishgan.

Bolalar-o‘smirlar sport maktabining gandbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi bolalar uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish, ularning jismoniy va funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirib borish muhimdir (C.Garsia, I.G.Shestakov, G.V.Barchukova, V.G.Nikitushkin). Mavjud adabiyotlar va ilmiy-metodik manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida bolalar-o‘smirlar sport maktabining gandbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi 7-12 yoshli bolalar uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish, ularning jismoniy va funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirib borish, buning uchun mashg‘ulotlarni rejalashtirish jarayonlariga tuzatishlar kiritish hamda gandbol sport turi uchun 7-12 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi maxsus uslub va modulini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash masalalari deyarli tadqiq etilmagan. Mana shu jihatlar tadqiqotimizning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlanib, unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko‘rsatib o‘tilgan:

I bosqich (2020 yil). Bu bosqichda BO‘SM yosh gandbolchilarining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirishga oid adabiyot va manbalar nazariy tahlil qilindi, me‘yoriy xujjatlar o‘rganildi, tadqiqotning maqsad va vazifalari qo‘yildi, pedagogik tajribani

o'tkazish bosqichlari va muddatlari belgilandi, tajriba tadqiqotlarida qo'llaniladigan mashg'ulotlarni aniqlashtirish ishlari amalga oshirildi.

II bosqich (2021 yil). Ushbu bosqichda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi bolalar va o'smirlar sport maktabi boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi 7-12 yoshli gandbolchilarida o'tkazildi.

Tadqiqotga BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi gandbolchilaridan nazorat va tajriba guruhlari uchun 30 nafardan jalb qilindi. BO'SM murabbiylari o'rtasida so'rovnoma tashkil qilindi. Shuningdek, bolalar-o'smirlar sport maktabi 7-12 yoshli gandbolchi bolalarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtiruvchi uslubiyatni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotdan oldingi dastlabki va tadqiqotlar davomidagi umumlashtiruvchi tajribalar o'tkazildi.

III bosqich (2022 yil). Ushbu bosqich pedagogik tajriba natijalarining yakuniy xulosalariga bag'ishlandi. Unda BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi 7-12 yoshli gandbolchilari uchun ishlab chiqilgan "Mini-gandbol" mashg'ulot moduli bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari, nazorat guruhi sinaluvchilari esa odatiy BO'SM mashg'ulotlari bo'yicha pedagogik tajribadan o'tkazildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyati"** deb nomlangan. Ushbu bobda yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini "Mini-gandbol" orqali tashkil qilish bo'yicha trener-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan anketa so'rovnomasi natijalari tahlili, 7-12 yoshli gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlariga "Mini-gandbol" mashg'ulot modulini ishlab chiqish orqali jismoniy va funksional tayyorgarlik imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasi, 7-12 yoshli gandbolchilarning texnik ko'nikmalarini "Mini-gandbol" mashg'uloti asosida rivojlantiruvchi "Uch bosqichli modul"ni ishlab chiqish hamda o'quv-mashg'ulot jarayonlarida qo'llash uslubiyati hamda 7-12 yoshli gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda "Kaskad usuli"dan foydalanish uslubiyati keltirib o'tilgan.

BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi yosh gandbolchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyatidan biri bu ularning mashg'ulotlariga individual hamda jamoaviy yondashish vosita va uslublaridan foydalanishdir. Shu maqsadda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtiruvchi "Mini-gandbol" mashg'uloti hamda u asosida "Uch bosqichli modul" ishlab chiqildi (1-2-3-4 jadvallar).

1-jadval

“Mini-gandbol” mashg‘ulotini tashkil qilishning “Uch bosqichli moduli”:

Modul bosqichlari	Bosqich xususiyatlari	Bosqich maqsadlari	Bosqich vazifalari	O‘tkaziladigan “Mini-gandbol” mashg‘ulotlari
1-bosqich “Boshlang‘ich” (7-8 yosh)	Ushbu bosqich 7-8 yoshdagi bolalar uchun mos keladi va o‘yin tajribasini yaratish uchun mo‘ljallangan.	1) Qiziqarlilik. 2) Ko‘proq harakat qilish. 3) O‘yinni yaxshiroq o‘rganish.	To‘pni yerga urib yugurish, to‘pni otish, to‘pni ikki qo‘l bilan tanadan uzoqda, ko‘rsatkich va bosh barmoqlar bilan ushlash.	1) Erkin o‘yin (qizdiruvchi mashqlar bilan (5-10 daqiqa) 2) Stansiya va yetakchi o‘yinlar (20-30 daqiqa) 3) Mini-gandbol o‘yinlari (20-30 daqiqa)
2-bosqich “O‘rta” (9-10 yosh)	Ushbu bosqich 9-10 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qoidalarini ko‘proq tushunishni ta‘minlash bilan birga, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan.	1) Birgalikda ishlash. 2) Yugurish. 3) O‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash.	Himoya ko‘nikmalarini shakllantirish, maydonning himoyalangan yarmida raqib o‘yinchisini to‘shib, himoyachi o‘yinchilar oyoq harakati va tana holatidan hujumkor o‘yinchilarni qulay vaziyatlarga ega bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaslik, yugurish paytida hujum qilish, harakatlanuvchi jamoadoshiga yugurayotganda pas berish, darvoza burchaklariga otish.	1) Erkin o‘yin (qizdiruvchi mashqlar bilan (5-10 daqiqa) 2) Stansiya va yetakchi o‘yinlar (20-30 daqiqa) 3) Mini-gandbol o‘yinlari (20-30 daqiqa)
3-bosqich “Yuqori” (11-12 yosh)	Ushbu bosqichda 11-12 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘yinchilarni jamoaviy mini-gandbolga tayyorlaydi, shu bilan birga ularga musobaqaga ijodiy yondashish imkonini beradi.	1) Harakatlarni muvofiqlashtirish. 2) Fikrlash. 3) Shaxsiy mas‘uliyatni oshirish.	Hujum, to‘pni uzatish va ushlab olish va otish kabi hujumkor ko‘nikmalarni egallash, sirpanish va oyoq harakatini yaxshilash kabi mudofaa qobiliyatlarini yaxshilash, himoyadan hujumga o‘tish, darvozabonlik texnikasini takomillashtirish, muvofiqlashtirilgan himoya va og‘zaki muloqotni o‘z ichiga olgan jamoa tushunchalarini joriy etish.	1) Erkin o‘yin (qizdiruvchi mashqlar bilan (5-10 daqiqa) 2) Mini-gandbol o‘yinlari (40-60 daqiqa)

7-8 yoshli gandbolchilar uchun “Mini-gandbol” mashg‘ulot moduli “Boshlang‘ich bosqichi”ning tarkibiy tuzilishi:

I. Nazariy tayyorgarlik

Gandbol tarixi. Gandbolning sport turi sifatida paydo bo‘lishi. Mini-gandbolni rivojlantirish: 5x5, 3x3.	Yosh gandbolchilar mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalari. Mini-gandbol mashg‘ulotida yosh sportchilarning o‘zini tutish qoidalari	Mini-gandbol o‘yini qoidalari. O‘yin maydoni (o‘lchamlari, maydonchasi, chiziqlar, zonalar va joylar). Darvozalar (o‘lchamlari). To‘p (o‘lchovlar, standartlar). O‘yin ishtirokchilari (jamoatarkibi, asosiy tarkib, zaxira o‘yinchilari, jamoa sardori, hakamlar).	Mini-gandbol kiyim-kechak, poyabzal, sport anjomlari va jihozlariga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari.
--	--	--	---

II. Umumiy jismoniy tayyorgarlik

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar majmualari: buyumsiz, to‘p bilan, gimnastik tayoq bilan, arqon bilan sakrash.	Kuchni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari: “O‘rdaklar jangi”, “Xo‘rozlar jangi”, “Chiziq ustida sakrab o‘tish”, “Tez olish - tez qo‘yish”, “Tunnel”, “Yuqoriga – pastga” “To‘ldirilgan to‘plar” bilan estafeta poygalari	Chidamlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari: “Baliq ovlash”, “Sakrash”, “Bo‘rtmalar va dumlar orqali sakrash.	Chaqonlikni rivojlantirish uchun ochiq o‘yinlar va o‘yin mashqlari: “Sabzavotlar ekish”, “Yo‘lovchilar va chiptalar”, “Savatlar”, “Uchinchi qo‘shimcha”.	Moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari: “Mushuklar”, “Ulkan qadamlar”, “Tuya poygasi”.	Tezlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari: “Otiqlar – sportchilar”, “Kun – tun”, “Labirint”, “Bayroqlaringizga”, “Qushlar uyalariga”.
--	---	---	---	--	--

III. Texnik tayyorgarlik

Hujum texnikasi: hujumchining turishi, yo‘nalishini o‘zgartirib yugurish, tezlikni o‘zgartirib yugurish, orqaga yugurish, orqaga yugurishni oldinga va teskarisiga qarab yugurishga o‘zgartirish, mokisimon yugurish	Himoya texnikasi: himoyachining turishi, yon tomonga harakatlanishi, o‘zaro qadam qo‘yishi, himoyachi pozitsiyasida oldinga va orqaga harakat qilish	Himoya va hujumda yugurishni o‘rgatish texnikasi: 1) to‘g‘ri chiziqda yugurishga o‘tish bilan joyida yugurish; 2) normal holatga o‘tish bilan yugurish; 3) mayda yugurish, tezlanishga aylanish; 4) yo‘nalishni o‘zgartirish bilan yugurish: to‘g‘ri chiziqda, “zigzag”, maydonning muayyan joylarida qadamlar chastotasining o‘zgarishi bilan yugurish	To‘pni ushlab olish va uzatish texnikasi: To‘pni ushlab olish va uzatishning o‘rganilgan turlari: - to‘pni ushlab olish; - to‘pni ushlab olish: to‘pni ikki qo‘l bilan joyida ushlab olish, to‘pni chap, o‘ngda ikki qo‘l bilan joyida ushlab olish, baland, past to‘plarni ushlab olish, dumalab kelayotgan to‘pni ushlab olish, to‘pni maydondan qaytgan holda ushlab olish; - to‘pni uzatish: to‘pni ikki va bir qo‘l bilan bir joydan surish bilan uzatish, bir joydan yuqoridan bir qo‘l bilan uzatish
--	--	--	---

9-10 yoshli gandbolchilar uchun “Mini-gandbol” mashg‘ulot moduli

“O‘rta bosqichi”ning tarkibiy tuzilishi:

I. Nazariy tayyorgarlik

<p>Mini-gandbol o‘yining birinchi qoidalari.</p> <p>Mini-gandbol bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish tartibi.</p>	<p>Mini-gandbol o‘yini texnikalarining tasnifi. Hujum texnikasi: harakat va uning turlari, to‘pni ushlab va uzatish va ularning turlari.</p> <p>Himoyadagi o‘yin texnikasi: o‘yinchini to‘p bilan va to‘psiz qo‘riqlash va uning turlari.</p>	<p>Mini-gandbol qoidalari.</p> <p>O‘yinchilarni almashtirish. O‘yin vaqti.</p> <p>Tanaffuslar.</p> <p>O‘yinchilarning xatti-harakatlari (fair-play, qoidabuzarliklar va jazolar).</p>
--	---	---

II. Umumiy jismoniy tayyorgarlik

<p>Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar majmualari:</p> <p>Rivojlanishga qaratilgan mashqlar komplekslari: tezlik; epchillik.</p>	<p>Kuchni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari:</p> <p>“Juftlarda arqon tortish”, “Tez olish - tez qo‘yish”, “Sakrayotgan chumchuqlar”, “Bog‘dagi quyonlar”.</p>	<p>Chidamlilikni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari:</p> <p>“Cho‘loq tovuq”, “Ilon”, “Yonayotgan o‘rmon”, “O‘n besh”.</p>	<p>Chaqonlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar:</p> <p>“Ovchilar va qorovul”, “Uxlayotgan ilon”.</p>	<p>Moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar:</p> <p>“Ko‘prik”, “Limbo”.</p>	<p>Tezlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar:</p> <p>“Kabutarlar va kalxatlar”, “Sichqoncha tuzog‘i”, “Joyalarni o‘zgartirish”, “Xandakdagi bo‘ri”.</p>
--	---	--	---	--	---

III. Texnik tayyorgarlik

<p>Himoya va hujumda harakat qilish texnikasi:</p> <p>Mini-gandbol bo‘yicha mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida (9-10 yosh) quyidagi harakat elementlarini o‘rganish tavsiya etiladi: sakrash, to‘xtash, burilish.</p>	<p>Sakrashni o‘rgatish texnikasi:</p> <p>surish, parvoz va qo‘nish paytida oyoqlarning to‘g‘ri o‘rnatilishi va uni o‘z vaqtida bajarish; balandlik, havoda “to‘sisib qo‘yish” qobiliyati va qo‘llab-quvvatlanmaydigan holatda harakatlarni muvofiqlashtirish; bir joydan, so‘ngra bir va ikki oyoq bilan sakrash.</p>	<p>To‘xtashni o‘rgatish texnikasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> To‘psiz to‘xtashlarni o‘rganish: yurishda, sekin yugurishda, o‘rta va tez yugurish tezligida (to‘g‘ri chiziqda, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish bilan), tovush va vizual belgilarga ko‘ra. To‘p bilan ham xuddi shunday. To‘pni ushlab olgandan keyin ham xuddi shunday. to‘pni ushlab turishdan keyin ham xuddi shunday. O‘yinlar va estafeta poygalarida tuzatish. 	<p>Burilishni o‘rgatish texnikasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> O‘ngga qadam tashlash, chap oyoq oldinga, o‘ngga, chappa. Burilishlarni qaratib, oldinga orqaga, to‘psiz tik turib bajarish. Xuddi shunday, lekin to‘p bilan. To‘pni joyida ushlab olish bilan birgalikda bir xil. to‘pni ushlab turish va to‘xtash bilan birgalikda bir xil. To‘pni ushlab va uzatish bilan birgalikda bir xil. Himoyachining qarshiligi bilan bir xil (passiv va faol).
--	--	--	---

11-12 yoshli gandbolchilar uchun “Mini-gandbol” mashg‘ulot moduli “Yuqori bosqichi”ning tarkibiy tuzilishi:

I. Nazariy tayyorgarlik

<p>O‘zbekistonda mini-gandbol. O‘zbekiston terma jamoasining chempionatlarda ishtirok etishi.</p>	<p>Mini-gandbol qoidalari. O‘yin harakatlari: to‘pni o‘yinda, to‘p bilan o‘ynashda xatolar, erkin va yetti metrga otish, to‘pni o‘yinga kiritishga ruxsat. O‘yin maydonining yon va oldingi chiziqlarini to‘p bilan kesib o‘tish.</p>
---	---

II. Umumiy jismoniy tayyorgarlik

<p>Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar majmualari: moslashuvchanlik chidamlilik, kuch.</p>	<p>Kuchni rivojlantirish uchun o‘ yinlar va o‘ yin mashqlari: to‘ Ildirilgan to‘ plar bilan estafeta poygalari, qo‘ l va yelka kamari mushaklari uchun to‘ Ildirilgan to‘ plar bilan o‘ yin mashqlari, oyoq va tos kamarining mushaklari uchun, orqa mushaklari uchun, to‘ Ildirilgan to‘ plar bilan juftlikda o‘ yin mashqlari.</p>	<p>Chidamlilikni rivojlantirish uchun o‘ yinlar va o‘ yin mashqlari: “ Cho‘ loq tovuq”, “ Ilon”, “ Yonayotgan o‘ rmon”, “ O‘ n besh” .</p>	<p>Chaqqonlikni rivojlantirish uchun ochiq o‘ yinlar va o‘ yin mashqlari: “ Ovchilar va qorovul”, “ Uxlayotgan ilon” .</p>	<p>Moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun mobil o‘ yinlar va o‘ yin mashqlari: “ Ko‘ prik”, “ Limbo” .</p>	<p>Tezlikni rivojlantirish uchun o‘ yinlar va o‘ yin mashqlari: “ Kabutarlar va kalxatlar”, “ Sichqoncha tuzog‘ i”, “ Joylarni o‘ zgartirish”, “ Xandakdagi bo‘ ri” .</p>
--	---	---	---	--	--

III. Texnik tayyorgarlik


<p>Hujum va himoya texnikasi</p> <ul style="list-style-type: none"> - to‘pni ushlab olish: to‘pni harakatda ushlab olish: qadam, parallel va ko‘ndalang harakat bilan yugurish; to‘pni raqibning passiv va faol qarshiligi bilan ushlash. - to‘pni uzatish: to‘pni yuqoridan bir qo‘l bilan to‘siqlarni yengib o‘tish, raqibning qarshiligida; to‘pni parallel va ko‘ndalang harakat paytida, raqibning passiv va faol qarshiligi bilan uzatish, to‘pni uchlik, to‘rtlik va h.k. - to‘pni urib turish: yo‘nalish, tezlik, balandlik o‘zgarishi bilan joyida va harakatda bir marta va ko‘p zarba. - to‘pni otish: yuqoridan joydan, yuqoridan yugurish bilan yon va ko‘ndalang qadamlar bilan tayanch holatida; uch qadamdan keyin otishni o‘rganish. - to‘pni urib turish paytida to‘pni blokirovka qilish; - aylanish holatidan otish va sakrab zarbalar paytida to‘pni to‘sib qo‘yish. 	<p>Individual taktik tayyorgarlik:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o‘yinchini butun maydon bo‘ylab to‘p bilan va to‘psiz qo‘riqlash; - raqibning faol qarshiligi bilan to‘pni ushlab olish va uzatishdan foydalanish; - to‘pni raqibning faol qarshiligi bilan ulotirishdan foydalanish.
--	---

Yosh gandbolchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda tanlangan sport turi bo'yicha tayyorgarligini baholash bo'yicha "To'p va to'psiz bajariladigan mashqlar majmuasi"

№	Nazorat test mashqlari	Jinsi	O'lchov birigi	Takrorlash (marta)	1-o'quv yili uchun (7-8 yosh)					2-o'quv yili uchun (9-10 yosh)					3-o'quv yili uchun (11-12 yosh)				
					Ball					Ball					Ball				
					3	4	5	3	4	5	3	4	5	3	4	5			
Umumiy jismoniy tayyorgarlik																			
1	30 m.ga yugurish	Q	soniya	2-3	6,7	6,5	6,3	6,4	6,2	6,0	6,2	6,0	6,2	6,0	5,8				
2	Mokisimon yugurish: 3x10 m.ga	O'	soniya	3-4	6,5	6,3	6,1	6,3	6,1	5,9	6,1	5,9	6,1	5,9	5,7				
3	Turgan joyidan uzunlikka sakrash	Q	soniya	2-3	11,0	10,8	10,6	10,8	10,6	10,4	10,6	10,4	10,6	10,4	10,2				
		O'	soniya	3-4	10,4	10,2	10,0	10,2	10,0	9,8	10,0	9,8	10,0	9,8	9,6				
		Q	sm	2-3	150	155	160	160	165	170	165	170	165	170	175				
		O'	sm	3-4	160	165	170	165	170	175	170	175	170	175	180				
Maxsus jismoniy tayyorgarlik																			
1	Gandbol to'pini (o'lcham 1-son) bir qo'l bilan joydan masofaga uloqtirish	Q	metr	7-8	8,0	8,5	9,0	8,5	9,0	9,5	9,0	9,5	9,0	9,5	10,0				
2	Gandbol to'pini (o'lcham 1-son) ikki qo'l bilan joydan masofaga uloqtirish	O'	metr	8-10	10,0	10,5	11,0	10,5	11,0	11,5	11,0	11,5	11,0	11,5	12,0				
		Q	metr	8-10	3,0	3,5	4,0	3,5	4,0	4,5	4,0	4,5	4,0	4,5	5,0				
		O'	metr	10-12	4,0	4,5	5,0	4,5	5,0	5,5	5,0	5,5	5,0	5,5	6,0				
Tanlangan sport turi bo'yicha																			
1	To'pni zigzag shaklda urib yugurish 30 m.ga	Q	soniya	7-8	10,4	10,2	10,0	9,9	9,7	9,5	9,9	9,4	9,2	9,4	9,0				
2	To'pni to'g'ri chiziq bo'ylab urib yugurish 30 m.ga	O'	soniya	8-10	9,9	9,7	9,5	9,4	9,2	9,0	9,4	8,9	8,7	8,5	8,5				
		Q	soniya	7-8	8,4	8,2	8,0	7,9	7,7	7,5	7,9	7,4	7,2	7,4	7,0				
3	Jufflikda to'p bilan pasni bajarish	O'	soniya	8-10	7,9	7,7	7,5	7,4	7,2	7,0	7,4	6,9	6,7	6,5	6,5				
		Q	marta	9-10	25,6	25,3	25,0	23,6	23,3	23,0	23,6	23,3	22,1	21,8	21,5				
4	Bo'sh zonadan to'p bilan darvozaga zarba berish	O'	marta	11-12	23,6	23,3	23,0	21,6	21,3	21,0	21,6	21,1	20,8	20,5	20,5				
		Q	marta	10-15	25,0	24,5	24,0	24,0	23,5	23,0	24,0	23,5	23,0	22,5	22,0				
		O'	marta	15-20	24,0	23,5	23,0	23,0	22,5	22,0	23,0	22,0	21,5	21,0	21,0				

Izoh: Q-qiz bolalar, O-o'g'il bolalar

Mini-gandbol – bu bolalarning tabiiy harakat ko‘nikmalarini, muvozanatini va muvofiqlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturidir. Mini-gandbolni o‘rganish oson, chunki u faqat tabiiy ko‘nikmalarni talab qiladi (1-rasm):



1-rasm. Mini-gandbol moduli uchun aylanma mashg‘ulot uslubi

Mini-gandbolning bolalar uchun qiziqarli qiladigan jihati shundaki, unda gol urish, zarbalarni saqlab qolish yoki shunchaki yaxshi pas berish orqali muvaffaqiyatga erishish nisbatan oson. Eng muhimi, o‘yin jamoadagi barchaga g‘alaba uchun teng hissa qo‘shish va zavqlanishni taqdim etadi. Shuningdek, “Mini-gandbol mashg‘ulot moduli”ning yoshga moslashtirilgan texnologiyasidan foydalanish, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi bolalarning mashg‘ulotlar davomida bajaradigan yuklamalarini tartibga solish va ularning funksional ko‘rsatkichlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda harakatlanish darajasini, jismoniy rivojlanish dinamikasini oshiradi.

Mini-gandbolning asosiy tamoyillari:

1) O‘yinlar orqali o‘rganish: bolalarning harakat ko‘nikmalarini, muvofiqlashtirishni, muvozanatni va jamoalarda ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘yindan foydalaniladi. O‘yin tajribasi natijalar yoki ballardan yuqori bo‘ladi.

2) Xavfsizlik va o‘yin-kulgi: bolalarga o‘yinni o‘rganish va dam olish uchun rag‘batlantiriladigan xavfsiz muhit yaratiladi. O‘yinning maqsadi bolalarga o‘z

mahoratini sinab ko'rish imkonini berish bo'ladi. Mini-gandbolda hisob qaydnomasi yo'q, chunki kim g'alaba qozonishi yoki yutqazishi muhim emas.

3) Rag'batlantirish: Bu tamoyilga ko'ra bolalar jismoniy faoliyatni sevimli o'rgatiladi va bu ularning ulg'ayganlarida sportni davom ettirishga undaydi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyatini amaliyotda qo'llash samaradorligini tajribada asoslash”** deb nomlanadi. Mazkur bobda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi 7-12 yoshli gandbolchilarning jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlarining tahlili keltirilgan. Tajriba va nazorat guruhlarining 7-12 yoshli o'g'il bolalar sinaluvchilarida o'tkazilgan pedagogik tajriba davomidagi natijalari 5-jadvalda berilgan. Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra, uch bosqichli “Mini-gandbol” mashg'ulot modulida sinaluvchi yosh gandbolchilarning tajriba boshi va oxiridagi jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi (o'g'il bolalar kesimida) quyidagicha bo'ldi (5-jadval):

A) Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha: 1) Yuqori stardan 30 m.ga yugurishda eng yuqori ko'rsatkich $4,9 \pm 0,3$ soniyani (12 yoshli TG) tashkil qildi ($p < 0,05$), eng past ko'rsatkich $7,2 \pm 0,6$ soniyani (8 yoshli NG) tashkil qildi ($p > 0,05$). TG va NG 10 yoshlilarda o'zgarish kuzatilmadi (NG $6,7 \pm 0,4$ soniya, TG $6,4 \pm 0,2$ soniya) ($p > 0,05$). 2) 3×10 m.ga mokisimon yugurish mashqida $6,9 \pm 0,2$ soniyali natija eng yuqorini (TG 12 yosh), eng past natija $7,8 \pm 0,3$ soniyali natija (NG 12 yosh) tashkil qildi. 3) Turgan joydan uzunlikka sakrash mashqida eng past natija $137,1 \pm 1,0$ sm.ni (NG 10 yosh), eng yuqori natijani $131,8 \pm 0,9$ sm.ni (TG 8 yosh) ko'rsatdi.

B) Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha: 1 kg to'ldirma to'pni uloqtirish mashqida 8 yosh NG tajribadan oldin $4,6 \pm 0,4$, tajribadan keyin $4,9 \pm 0,3$ natijani ko'rsatdi (nisbiy farq 0,3 kg) ($p > 0,05$). 10 yosh TG tajribadan oldin $5,1 \pm 0,3$ tajribadan keyin $6,9 \pm 0,2$ natijani ko'rsatdi (nisbiy farq 1,8 kg) ($p < 0,01$) (5-jadval va 2-3-rasmlar).

V) Tanlangan sport turi bo'yicha: 1) Juftlikda to'p bilan 20 ta pasni bajarish mashqida yung yuqori o'sish $20,1 \pm 0,5$ soniya (TG 12 yosh) ($p < 0,01$) ni tashkil qildi. 8 yosh NG $23,6 \pm 0,2$ soniyani, TG $23,1 \pm 0,5$ soniyani tashkil qildi. Farq 0,5 soniyani ko'rsatdi ($p < 0,05$). 2) Bo'sh zonadan to'p bilan darvozaga 5 marta zarba berish mashqida 12 yosh TG tajribadan oldin $22,5 \pm 0,1$ soniya, tajribadan keyin $21,1 \pm 0,6$ soniyani ko'rsatdi. Eng yuqori o'sish 1,4 soniya ($p < 0,01$).

Tajriba va nazorat guruhlarining 7-12 yoshli qiz bolalar sinaluvchilarida o'tkazilgan pedagogik tajriba davomidagi natijalari 6-jadvalda berilgan. Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra, uch bosqichli “Mini-gandbol” mashg'ulot modulida sinaluvchi yosh gandbolchilarning tajriba boshi va oxiridagi jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi (qiz bolalar kesimida) quyidagicha bo'ldi (6-jadval va 4-rasm):

Uch bosqichli “Mini-gandbol” mashg‘ulot modulida sinaluvchi yosh gandbolchilarning jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi (o‘g‘il bolalar kesimida)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich bosqich sinaluvchilari (8 yosh) n=10				O‘rta bosqich sinaluvchilari (10 yosh) n=10				Yuqori bosqich sinaluvchilari (12 yosh) n=10			
		NG		t	p	NG		t	p	NG		t	p
		$(\bar{X} \pm \sigma)$	TG			$(\bar{X} \pm \sigma)$	TG			$(\bar{X} \pm \sigma)$	TG		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha													
1	Yuqori startdan 30 m yugurish	7,7±0,2	7,4 ±0,4	0,17	>0,05	6,9±0,2	6,9±0,4	0,45	>0,05	6,5±0,3	6,2±0,8	0,34	>0,05
		7,2±0,6	6,8±0,1	1,92	<0,05	6,7±0,4	6,4±0,2	1,13	>0,05	5,7±0,5	4,9±0,3	2,41	<0,05
2	3×10 m mokisimon yugurish	10,1±0,7	10,4 ±0,1	1,32	>0,05	9,2±0,6	9,1±0,5	1,48	>0,05	8,1±0,1	8,0±0,5	1,55	>0,05
		9,6±0,4	9,1±0,7	2,28	<0,01	8,6±0,3	8,2±0,7	2,92	<0,01	7,8±0,3	6,9±0,2	3,18	<0,01
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash	116,2±3,7	117,3±2,8	1,84	>0,05	132,7±0,2	134,7±0,9	1,38	>0,05	142,9±0,9	145,8±0,8	2,02	<0,05
		127,3±0,6	131,8±0,9	2,42	<0,01	137,1±1,0	142,3±0,7	2,78	<0,05	148,9±0,3	158,7±0,7	3,48	<0,01
Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha													
4	To‘ldirma to‘pni uloqtirish (1 kg)	4,6±0,4	4,5±0,7	1,74	>0,05	5,3±0,3	5,1±0,3	1,94	>0,05	6,1±0,5	6,0 ±0,7	2,14	>0,05
		4,9±0,3	5,3±0,6	2,03	<0,05	5,9±0,2	6,9±0,2	3,05	<0,01	7,0±0,2	7,9±0,1	2,95	<0,05
Tanlangan sport turi bo‘yicha													
5	Juftlikda to‘p bilan 20 ta pasni bajarish	24,1±0,2	23,8±0,7	1,84	>0,05	22,2±0,7	22,3±0,7	1,97	>0,05	21,2±0,7	21,3±0,7	2,33	<0,05
		23,6±0,2	23,1±0,5	2,13	<0,05	21,6±0,2	21,1±0,5	2,31	<0,05	20,8±0,2	20,1±0,5	2,51	<0,01
6	Bo‘sh zonadan to‘p bilan darvozaga 5 marta zarba berish	24,6±0,8	24,5±0,6	1,79	>0,05	23,6±0,1	23,4±0,3	1,72	>0,05	22,4±0,8	22,5±0,1	1,91	>0,05
		24,1±0,3	23,5±0,5	2,41	<0,05	23,0±0,7	22,6±0,1	2,59	<0,05	21,8±0,2	21,1±0,6	2,79	<0,01

Izoh: Suratida - tajribadan oldingi natijalar; mahrajida - tajribadan keyingi natijalar.

Uch bosqichli "Mini-gandbol" mashg'ulot modulida sinaluvchi yosh gandbolchilarning jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi (qiz bolalar kesimida)


T/r	Ko'rsatkichlar	O'ltov bitirgi	Boshlang'ich bosqich sinaluvchilari (8 yosh) n=10			O'rta bosqich sinaluvchilari (10 yosh) n=10			Yuqori bosqich sinaluvchilari (12 yosh) n=10				
			NG ($\bar{X} \pm \sigma$)	TG ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	p	NG ($\bar{X} \pm \sigma$)	TG ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	p	NG ($\bar{X} \pm \sigma$)	TG ($\bar{X} \pm \sigma$)	t
